

**Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti “Tasviriy san’at va  
dizayn” kafedrasi p.f.n. professori  
Baymetov Botir Boltaboyevich taqrizi  
ostida**

**Ismatov Ulfat Shuhratovich  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
“Tasviriy san’at va dizayn” kafedrasi dotsent  
v.b. +998909306091,  
ulfat.shuhratovich@gmail.com,  
<https://orcid.org/0000-0002-9600-5441>**

**G‘ulomova Dilnura Xusan qizi  
CHDPU Tasviriy san’at va muhandislik  
grafikasi ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi  
+998993135399**

**Xaqnazarov Sardor Lutfilla o‘g‘li  
CHDPU Tasviriy san’at va muhandislik  
grafikasi ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi  
+998913218365**

---

## **TASVIRIY SAN’AT DARS MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNI GRIZAYL TEXNIKASIDA GEOMETRIK JISMLARDAN TUZILGAN NATYURMORT ISHLASHGA O‘RGATISH**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san’at mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni ranglarning rivojlanish tarixi, rang turlari va akvarel bo‘yog‘ida grizayl texnikasida natyurmort ishlashga o‘rgatishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Akvarel, grizayl, tasviriy san’at, rangtasvir, axromatik, xromatik, tus.

---

### **НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА УЧИТЬ УЧАЩИХСЯ РАБОТАТЬ НАД НАТЮРМОРТОМ, СОСТАВЛЕННЫМ ИЗ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ТЕЛ В ТЕХНИКЕ ГРИЗАЙЛЬ**

**Аннотация:** В этой статье рассматривается история развития цвета на уроках изобразительного искусства, типы цвета и важность обучения студентов работе с натюрмортом в технике гризайль акварелью.

**Ключевые слова:** Акварель, гризайль, изобразительное искусство, живопись, ахроматика, хроматика, тон.

---

### **TEACHING STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES TO WORK IN A STILL LIFE MADE UP OF GEOMETRIC BODIES IN THE GRIZAIL TECHNIQUE**

**Annotation:** This article reflects on the history of the development of colors, types of colors and the importance of teaching students to work still life in the technique of grisaille in watercolor in fine arts training.

**Keywords:** Watercolor, grisaille, fine arts, painting, achromatic, chromatic, tus.

---

Tasviriy san’at tarixida rangdan foydalanish jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borgan. Ibtidoiy jamoa rassomi o‘z “asar”ini mavjud tabiiy rang (yog‘och ko‘miri, olov kuyasi) dan foydalanib ishlagan, jamiyat rivoji bilan rang - pigment va bog‘lovchilar ortib borgan, quldarlik

davrida murakkab rang (akovarel, tempera, enkaustika) texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bundan 3500 yillar oldin inson kitob yozish va unga rasmlar ishlashni boshladi, bu bilan u akvarel rangtasviriga asos solganligini bilmas edi. Yozishda qo'llanadigan Cuperus-papirus o'simligini topib, misrliklar bunga birinchi qadamni tashlagan edilar. Oxiratda yer yuzida nima qilganligini ollohga ko'rsatishlari uchun bu yaratilgan kitoblarni uning mualliflari bilan ko'mishgan. Bu kitoblarga rasm ishlashda jigarrang uchun tabiiy oxra va siena, qizil rang uchun kinovar, qora rang uchun kuydirilgan iva, oq bo'yoq uchun gips kabi minerallar asosida yaratilgan shaffof bo'yoqlar ishlatilgan edi. Bu bo'yoqlar tuxum sarig'i va gummiarabik bilan qo'shib tayyorlanib, suv bilan ishlatilar edi. Boshqacha qilib aytganda bu hozirda biz ishlatib kelayotgan akvarel bo'yog'i edi. Yuqorida aytib o'tilgan ilk akvareldan hozirgi zamonaviy akvarel bo'yog'idan shakli, rangi va janrning asosiy xususiyatlari ancha o'zgaganligini kuzatish mumkin, lekin bo'yoqning tarkibi o'shaligicha qolgan. Juda ko'p mashhur rassomlar qatorida taniqli Battista Jovanini ham akvarelning xususiyatlaridan mohirona foydalangan. Battista Jovannining chizish usuli qiyin ko'rinsa ham o'rgansa bo'ladigan jihatlari ko'p. Rassomning asarlari yengil chizilgan chiziqlar suvli mo'yqalamda yuvish yo'li bilan birga olib boriladi. Uning chizmatasvirlarini unga yaqin bo'lган tugallangan mo'jaz rangtasviri bilan solishtirsangiz ajoyib, nafis chiziqlarning o'zidayoq rassom kompozitsiyaning asosiy ilk g'oyasini ifodalab qo'yanining guvohi bo'lasiz[1]. Zamonaviy ta'linda ham rangtasviri o'rgatishning ilk bosqichlarida akvarel bo'yog'ida ishlashni o'rganishdan boshlanadi. Unda rassom uchun eng kerakli bo'lган soya-yorug', rang-tus munosabatlari, asosiy rang, qo'shimcha ranglar haqidagi dastlabki tushunchalar shakllantirilib boriladi.

Tusni aniqlashda yo'l qo'yilgan xato noto'g'ri rang berishga olib keladi, shuning uchun tusni to'g'ri idrok qilish rassomning asosiy vazifasi sanaladi. Bundan ham ko'riniб turibdiki rang va tus o'zaro bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Rassom uchun asar yaratishda shakl bilan birga (ranglar) ifoda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda yaxshi asar yaratish uchun maqsadning o'zi yetarli emas (eng yomon san'at asarlari jiddiy kishilar tomonidan yaratilishini esdan chiqarmaslik lozim). San'atda yaxshi g'oya va jiddiy maqsad bu yutuq emas. Asar yaratish uchun ular muhim hisoblanmaydi.

Eng muhimi bu g'oyani rangda ifodalash. Inson bajargan har bir ijodiy ish bu qandaydir darajadagi bir asar. Badiiy asarning o'zi qanday muammo ifodalaganligidan qat'iy nazar "alohida asar" sifatida e'tiborga molik bo'lishi kerak[2].

Bo'lg'usi rassomlar uchun yana shuni bilib qo'yish foydaliki, yorug' kunda mashq qilgan ko'z rangning 180 tusini, to'qligining 10 pog'onasini farqlay oladi. Tafakkuri kamol topgan inson ko'zi rang tuslardan taxminan 360 tasini farqlay oladi. Ranglar axromatik va xromatik ranglarga bo'linadi. Axromatik (oq va qora) ranglar faqat o'zaro tus nisbatlari bilan bir biridan farqlanadi. Xromatik ranglar deganda barcha rangli bo'yoqlar tushuniladi. Bu ranglarning yorqinligi axromatik rang bo'lган kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi. Agar bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och-to'qligi o'zgaradi. Ranglar iliq yoki sovuq ranglar bo'lishi mumkin. Shuningdek natyurmort ishslash jarayonida yana qarama-qarshi ranglarga ham duch kelamiz. Har qanday axromatik rang to'q ranglar orasida ocharib ko'rinsa, och ranglar orasida esa to'qlashib ko'rindi. Bu tus kontrastlari deyiladi. Yonidagi rang ta'sirida rang tusi o'zgarishi rang kontrasti deyiladi.

Xromatik rangning yorqinligi axromatik rang bo'lган kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi. Agar bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och to'qligi o'zgaradi.

Yorqinlik xromatik va axromatik ranglarga tegishli sifatdir. Uni oqishlik bilan adashtirmaslik kerak (narsalar, buyumlarning rang sifatlari).

Odatda musavvirlar yorqin bo‘yoqlar nisbatini tuslar nisbati deb atashadi. Asarda aks etgan yorqinlik bilan rang tuslarini, yorug‘ – soya bilan ranglar tizimini adashtirmaslik kerak. Tasvir yorqin tuslar chizilgan deganda avvalo yorqin bo‘yoqlar nisbati ko‘zda tutiladi.

Axromatik ranglar: ya’ni oq, kulrang va qora ranglar faqat yorqinlik bilan tavsiflanadi. Yorqinlik bo‘yicha farqlar ba’zi ranglarning ochroq, ba’zilarining esa to‘qroqligidadir. Buyum shakli sirtidagi ranglarning har xil nozik turlanishi, tus o‘zgarishlari natijasida ularning hajmini kuzatamiz, bizdan qanday darajadagi uzoqlikda joylashganligini his qilamiz, shu bilan masofa, perspektiva haqida tushunchaga ega bo‘lamiz. Buyumlardagi tuslarni ko‘rish va ajratish ranglarni aniqlashga qaraganda ancha qiyinroq. Tuslarni yaxshi ajratishga o‘rgangan rassom xilma – xil ranglar, ularning och to‘qlik darajada turlanishini ko‘ra olish, his qilishda qiyalmaydi.

Shubhasiz, realistik rangtasvida tus hal qiluvchi muxim ahamiyatga ega. Tuslarni o‘rganish uchun boshlovchi rassom avvalo bir xil ranglar (grizayl)da ranglavhalar bajarishni mashq qilishi kerak. Ranglavha (franquzcha etude – o‘rganish; mehnat, naturadan bajarilgan ma’nosida) – bu rassom o‘zining kasbiy ko‘nikmalarini takomillashtiradigan, tasvirni jozibali, haqqoniy tasvirlash mashqi hisoblanadi. Bu mashqlar yosh rassomlarning rangda ishslashdan oldingi tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, rangtasvir texnikasini egallashda juda katta foyda beradi. Grizayldagi och va to‘q tuslarda ishslash akvarel rangtasvirining cho‘qqisi desa ham bo‘ladi. Bu usulda mustaqil mashqlar bajarish natijasida tez orada bu akvarelning kutilmagan toza, nozik ranglarda tuslanishini ko‘rib, bu g‘aroyib texnikada ishlab shuncha mehnatingiz besamar ketmaganligiga o‘zingiz iqror bo‘lasiz[3]. O‘quv jarayonini bochqichlarga ajratish bilan tus nisbatlarini o‘rganish muammolarning echimini topish mumkin: rangtasvir mashg‘ulotlaridagi birinchi bosqich – bu kartinadagi tuslar nisbatini aniqlash va ishlov berish, ya’ni berilgan vazifani “grizayl” texnikasida bajarish hisoblanadi. Shuning uchun o‘quv jarayonida talabalarga grizayl texnikasida ishslashni o‘rgatish maqsadida bu mashg‘ulotlar o‘quv dasturlariga kiritilib, bu vazifalarni bajarish talabalar uchun shart qilib belgilab qo‘yilgan.

### **Geometrik jismdan tuzilgan natyurmortni grizayl texnikasida ishslash.**

Qog‘ozning oq yuzasi va rangning eng ochdan to eng to‘qqacha bo‘lgan tuslaridan foydalanim rassom tasvirlanayotgan buyumning nafaqat shakli balki hajmi, yorug‘–soyasi, fazoda joylashishi va har bir materialning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalashi mumkin.

Grizaylda rangning ahamiyati yo‘q, unda buyumning faqat tusi hisobga olinadi. Biz akvarelda grizayl ishslashning bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.



**1-rasm. Grizaylda natyurmort ishlashning 1-bosqichi**

**Birinchi bosqich (1-rasm).**

Birinchi bosqichda albatta komponovkadan boshlanadi. Boshlang‘ich eskizda komponovkaning vertikal, gorizontal, kvadrat kabi har xil variantlarini bajarib ko‘rish mumkin. Qachonki eskizda kompozitsiya haqida bir to‘xtamga kelgach, asosiy formatda ishlashga o‘tish mumkin. Asosiy formatda qo‘yilgan natyurmortdagi buyumlarning umumiyligi ko‘rinishi belgilanib, keyin alohida buyumlar topilgan katta yuzada joylashtirib chiqiladi. Bunda har bir buyumning yonidagi jismlarga nisbati, ulardagi burchak qiyaliklari, doira yoki oval shakllarinrning o‘zaro nisbatlari sinchiklab o‘rganib chiqiladi.



**2-rasm. Grizaylda natyurmort ishlashning 2-bosqichi**

**Ikkinchi bosqich (2-rasm).**

Perspektivadagi asosiy tekisliklar shuningdek buyumlar joylashgan tekislikni belgilanadi. Maydalab ishlamagan holda har bir buyumning xarakterli xususiyatlarni, joylashgan o‘rnini, barcha buyumlarning o‘zaro nisbatlarini

**Uchinchi bosqich (3-rasm).**

Bu bosqichda ranglar echimiga ishlov berib boriladi. Natyurmortning eng to‘q va eng och qismlarini aniqlashtiriladi. Natyurmortning qanday yoritilganligiga e’tibor berish juda zarur. Katta yuzadagi umumiylar yorug‘ va soya joylarni topib borilib, avval soya qismlariga ishlov beriladi. Yorug‘ va soyalarni ishlash bilan buyumlar hajmini berish mumkin. Ranglar bilan ishlashda rangni yaxlit berishga harakat qiling.



**3-rasm. Grizaylda natyurmort ishlashning 3-bosqichi**

**To‘rtinchi bosqich (4-rasm).**

Ishni katta va yaxlit rang nisbatlarida ishlashni davom ettiring. Natyurmortdagi kenglik, fazoviy perspektivani ifodalash uchun birinchi plandagi ranglar qarama-qarshiligini kuchaytirib, buyumlarni aniqroq tasvirlang, orqa planni yengillashtirib, ba’zi joylarini ochartirish mumkin. Shu yo‘l bilan kompozitciyadagi fazoviy bo‘shliqni ifodalanadi. Faqatgina buyumlarning tusiga emas, balki hajmi, shakli hamda uning materialini ham berish uchun diqqatingizni jalg qiling[4].



#### **4-rasm. Grizaylda natyurmort ishlashning 4-bosqichi**

**Yorug‘-soya ko‘lamlari.** Rangtasvirda buyumlarni aks ettirish uchun - yorug‘lik, uning shakli va hajmini ifodalash uchun - soya juda muhim. Rangning har xil tus ko‘lamlari yordamida hajmni bera olishimiz mumkin. Uning bu xususiyati qalamtasvir va rangtasvir kompozitsiyalari yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu fikrni tushunib olishimiz uchun ushbu suratni ko‘rib chiqamiz. Buyumdagi mavjud rang ko‘lamlarini ko‘rish va tushunib etish maqsadida kuzatish va taqqoslash yo‘li bilan ushbu mashqni bajarib ko‘ramiz. Oq va qora bo‘yoqlar qo‘shib hosil qilingan beshta qo‘sishimcha rang ko‘lami har qanday buyum rangini ifodalash uchun etarli bo‘ladi[5].



### **5-rasm. Akvarel bo‘yog‘ida ishlash texnikasi**

Har qanday narsaning chuqurligi va hajmi quyidagi bir qator rang- tus ko‘lamlaridan iborat:

1. Yorug‘lik; 2. Shu’la; 3. soyadagi qismning ochlashib borishi; 4. refleks; 5. yarim soya; 6. shaxsiy soya; 7. tushib turgan soya.

Bu suratda buyumning hajmini ifodalash uchun qo‘llaniladigan tus ko‘lamlarini ko‘rib turibsiz (belgilangan raqamlarga e’tibor bering). Xuddi shunga o‘xshash tuslar ko‘lamini aniqlash mashqini boshqa qog‘ozda bajaring. Olma o‘rnida boshqa rangdor meva (m-n:apelsin) tanlashingiz ham mumkin.<sup>1</sup>

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarni tasviriy san’at darslari amaliy mashg‘ulotlarida rangtasvirda ishlashga o‘rgatishda dastlab grizayl texnikasida bosqichli natyurmort ishlashga o‘rgatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘quvchi bitta rangda rangtasvir texnikasidan foydalanishni hamda, buyumlardagi soya-yorug‘likni va eng asosiysi tus nisbatlarini to‘g‘ri ifolashni o‘rganadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-27
2. Sultanov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishlash). Metodik qo‘llanma. T.–2014.
3. U.Sh.Ismatov. Rangtasvir. O‘quv qo‘llanma. “Nazokathon ziyo print”. Chirchiq-2023.
4. U.Sh.Ismatov. Rangtasvir (Grafik materiallarda tasvirlash). Elektron darslik. № 232-354
5. Ismatov, U. S. (2023). Methodology Of Teaching Students To Describe Still Life Composition. Diversity Research: Journal of Analysis and Trends, 1(3), 60-65.

<sup>1</sup> Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s 127